

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIYNING EPIK ASARLARIDA AYYUB (A.S.) OBRAZI TALQINI

Hamida Ashurova

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
kichik ilmiy xodimi*

E-mail: mumtozijod@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning epik asarlarida Ayyub (a.s.)ga munosabat va barcha davrlar uchun birday muhim bo‘lgan komil inson mavzusi tahlilga tortilgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiy ijodida Ayyub (a.s.) obrazining ramziy-majoziy tasvirlar orqali yorqini ifodalanishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *obraz, timsol, Ayyub (a.s.), sabr, komil inson.*

Аннотация: *В данной статье анализируется трактовка Айюба (а.с.), признанная в былинах Алишера Навои, тема совершенного человека, одинаково важная для всех эпох. Интерпретация Айюба (а.с.) как темы, символа, образа в узбекской классической литературе – это уникальный художественный мир. Этот образ олицетворяет идеальную индивидуальность и терпение в области символических изображений.*

Ключевые слова: *образ, символ, Айюб, терпение, совершенный человек.*

Abstract: *This article analyzes the attitude to Ayyub (a.s.) recognized in the epics of Alisher Navoi and the theme of the perfect man, which is important for all times. The interpretation of Ayyub (a.s.) as a theme, symbol, image in Uzbek classical literature is a unique artistic world. This image serves as a model for the perfect man and a symbol of patience with a range of symbolic images.*

Key words: *image, symbol, Ayyub, patience, perfect person.*

Ayyub payg‘ambarga xos bo‘lgan fazilat – sabr timsoli ekani barcha davrlar adabiyotida yorqin aks etadi. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning epik asarlarida ham bu haqiqat o‘z ifodasini topgan. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonining o‘n uchinchi maqolatida sabr fazilati haqida bahs yuritilgan. Ayyubning o‘g‘ri egriligini tuzatganligi haqidagi (“*Ayyubi xalaf noxalaf o‘g‘rining egriligin tuzgoni va gumrohlik zulmatida anga yo‘l ko‘rguzgoni va ul shayx silsilasig‘a kirib, ayyorlik kamandin uzgoni*”) (Marhamatli bu voqea 47-bobdan joy olgan) hikoyat esa fikrning jonli va ta’sirchan yuzaga chiqishida alohida ahamiyatga ega.

*Bir kecha Ayyubi xalaf masti roz,
To‘kar edi shamdek ashki niyoz.
Ashk duri bahrig‘a pobast edi,
Kuymak aro shamg‘a hamdast edi.*

Hikoyatda “silsila”, “shayx” so‘zlari keltirilgan. Navoiy Ayyubi xalafning uyini tilla, javohirlar solinadigan qutichaga, o‘zini esa quti ichidagi eng toza durga o‘xshatadi:

*Xilvatida maskani bir burj aro,
Durri samin o‘ylaki bir durj aro.*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

U toat-ibodat qilib, tunni tongga ulaydigan kechalarning birida “kisaburi naqbzani” – lahm kavlovchi o‘g‘ri yer ostini o‘yib, uyiga o‘g‘irlikka kiradi. Ayyubi pokdomon buni sezsa ham e’tibor bermay, sajdasi va ibodatini davom ettiraveradi.

*Anglabon Ayyub oni, dam urmadi,
Toat etib, o‘ziga kelturmadi.*

Hikoyatda Ayyub o‘zining iymoni, xalqparvarligi va ilm ziyosi bilan *sham* kabi ko‘ngil uyini charog‘on etuvchi siymo sifatida yodda qoladi. Boylik ilinjida teshikdan kirib, yuki og‘irlashib, bir ahvolda qolgan o‘g‘ri sichqon holati bilan parallel qo‘yilgan:

*Naqbg‘a kiringach kichik erdi teshuk,
Sig‘madikim behad ulug‘ erdi yuk.*

Hikoyatda o‘g‘ri xarakteri birgina bayt orqali ravshanlashadi. Navoiy “*sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga*” maqolini keltirish bilan *irsoli-masal* san‘atini qo‘llaydi:

*Tor ini sichqong‘a solib erdi g‘am,
Quyriqig‘a bog‘ladi g‘irbol ham.*

“Sichqon” – majoziy obraz. O‘g‘ri xarakterini aniq va lo‘nda shaklda izohlaydi. G‘irbol – g‘alvir. Shoir sichqon inining torligini “g‘am”ga yo‘yadi. Bu – o‘zi ochgan tor tuynuk ichida jonsarak qolgan o‘g‘rining g‘ami. Ayyub o‘g‘rining holini ko‘rib, o‘rnidan turadi-yu, eshikni ochadi:

*Ko‘rdi chu Ayyubki ojizdur ul,
Qo‘pti eshik ochti-yu ko‘rguzdi yo‘l.*

Tasvirning o‘zida majoziy ifoda bor: qalb ko‘zi ko‘r, odamlarga nafi tegmaydigan, nafsini o‘ylaydigan, tili ham, ko‘ngli ham saxovatdan bebahra kishi (murid) “o‘g‘rilik”ka kiradi, ya’ni murshid huzuriga boradi. Lekin u ma’rifatdan bahramand bo‘lishi uchun tavba qilishi kerak. Ayyubning eshikni ochib, yo‘l ko‘rsatishi o‘g‘rining tavbasidir.

Hikoyatda Ayyub faqatgina “*xalaf*” emas, pir, yo‘l ko‘rsatuvchi, “*odamilar odamidir*”. Chunki u “tariqat odobi”dan xabardor edi. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida tariqat odobi haqida shunday yozilgan: “Ul adabdurki, yaxshi-yu yomonga va ulug‘-u kichikka bajo keltirurlar... Hattoki, o‘z farzandlariga va xodim-u mamluklarigaki / qul, asir /, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat / qo‘pollik / birla alarga so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rigacha”. Ayyubning o‘g‘riga yumshoq muomalasini ana shu bilan izohlash mumkin.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Yo‘l – ramz. U tariqatga boshlash va Allohni tanish yo‘lidir. Murid bu yo‘lda pirga ehtiyoj sezadi. Tariqat manziliga borishdan oldin muridning jismida bir o‘t paydo bo‘ladi va bu otash o‘zini va o‘zligini kuydiradi, nafsidan xalos qiladi.

*Jonig‘a bir o‘t solibon so‘z-u dard,
Kim kuyub andin falaki lojuvard.
Egnidagi yukni bu o‘tg‘a urub,
O‘zlugining ham yukini kuydurub.*

Solik – murshid rahnamoligida sulukka kiringach, pir unga faqirlik xirqasini kiydiradi. Bunda endi solikning o‘zligidan nom-u nishon qolmay, mahv bo‘ladi.

*Anglabon ul dard ila holat anga,
Xirqayi faqr etti havolat anga.*

*Kuydi suluk o‘tig‘a joni aning,
O‘ylaki, mahv o‘ldi nishoni aning.*

*O‘zluki chun kuydi nechukkim xase,
Topti ul o‘t birla yorug‘luq base.*

Ya‘ni, o‘g‘rining joni suluk ichra kuydi, demakki, o‘zligi (nafsi) ham xas kabi yonib, shu o‘t butun borlig‘iga yorug‘lik berdi.

Hikoyat so‘nggida shoir talmeh san‘atidan foydalanib, ko‘nglidagi ilinjini izhor etadi. Baytda Ayyub (a.s.) bilan Nuh (a.s.) nomi yonma-yon tarzda keltiriladi:

*Bot bo‘lu bir jom ila yetkur futuh,
Sabr esa Ayyubcha yo‘q umri Nuh.*

Hikoyatdagi Ayyub obrazi faqatgina yo‘l ko‘rsatuvchi emas, inson qalbidagi ma‘naviy xastaliklarni davolay oladigan hoziq tabib hamda mohir murabbiy siymosida aks ettirilgan.

Ayyub (a.s.) obrazi Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham uchraydi. Ayyub (a.s.) haqidagi qissaning bosh manbasi Qur‘oni Karim bo‘lib, muallif o‘z fikrlarini asoslash uchun muayyan oyatlarni havola qilib boradi. Qur‘oni Karim izohlarida o‘qiymiz: “Ayyub payg‘ambar asli Rum mamlakatidan bo‘lib, boy-badavlat kishi edilar. So‘ngra boshlariga og‘ir kunlar tushib, mol-dunyolaridan ajradilar, lekin qanoat qildilar; bolalari birin-ketin halok bo‘lishib, ulardan ham judo bo‘ldilar, sabr qildilar; salomatliklaridan ajrab, eng og‘ir xastaliklarga duchor bo‘ldilar, shikoyat qilmadilar!”. “Tarixi anbiyo va hukamo”da ham Ayyub payg‘ambar, u kishining avlodi, Rumda tavallud topgani, asosan Shomda yashagani, boshiga tushgan balolar, [ularni sabr bilan yenggani](#), keyinchalik Tangri inoyati bilan barcha narsalarga ega bo‘lishi bayon qilingan.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Asarning diqqatga sazovor jihati shundaki, Navoiy barcha dinlar payg‘ambarlariga birdek hurmat va ehtiromda bo‘lgan. Masalan, Is‘hoq (a.s.) haqidagi qismda, Ayyub payg‘ambar haqida quyidagilarni bayon qiladi: *“Anga duo qildikim, salotin sening naslingdin bo‘lg‘ay. Va ba‘zi debdurlarkim, Sobir payg‘ambar sening naslingdin bo‘lg‘ay deb ham duo qildi. Va Ayyub (a.s.) I‘ys avlodidindur va I‘ysg‘a bu mazkur bo‘lg‘on jihatdin Ya‘qub (a.s.) g‘a xusumat paydo qildi. Va Ya‘qub (a.s.) andin haroson erdi”*.

Ayyub shunday martabada ediki, Haq taoloning ibodatidan boshqa hech narsaga e‘tibor qilmas edi: *“Ul martabadakim, Haq taolo maloikahaaning holotini jilva berdikim, maning ibodatimdin o‘zga hech nimaga parvo qilmas”*.

Bir kuni maloika Ayyub payg‘ambarning boy-badavlatligi, hech narsaga ehtiyoji yo‘qligi va shuning va‘jidan ibodatda sobitligi haqida Haq taologa murojaat qiladi: *“Maloika ayttilarkim, xudoyo, hech nav‘ jam‘iyatdin yo‘qturkim, anga nasib qilmaysen. Nevchun saning ibodatingdin o‘zga ish qilg‘ay”*. Shunday bo‘lishiga qaramay Alloh taolo Ayyubning ibodatni kanda qilmasligini bildiradi: *“Tengri taolo maloikag‘a xitob qildikim, bu zohir jamiyatlari parishonlig‘ asbobidur. Vale sizing mazannangiz bu bo‘lsakim, bu jihatlardinkim, aning ko‘ngli jam‘ uchun ibodatqa mash‘ufdur, andoq qiloyki, sizlar bilgaysizkim, bo‘lar-bo‘lmasa ham aning ishi toatdur”*.

Shundan so‘ng Ayyub (a.s.) boshiga balolar, sinovlar ravo ko‘riladi. Og‘ir dardga chalinadi. Haq yodi va zikri uchun yurak hamda tiligina omon qoladi. Uyi qulab, o‘n o‘g‘li ham tom ostida qoladi va halok bo‘ladi. Barcha mol-dunyosidan judo bo‘ladi. Shu sinovlarga qaramay, Ayyub (a.s.) Haq zikrini kanda qilmaydi.

Shuncha sinovlardan so‘ng, Ayyub (a.s.)ning hech narsasi va yonida hech kimi qolmaydi. Barcha yaqinlari, qarindosh, do‘stlari tashlab ketadi. Hatto shirkda ham ayblaydilar. Jismiga bemorlik tegadi. Jarohatlariga qurtlar tushadi. Unga faqat ayoligina sadoqat bilan xizmat qiladi. Ayoli Rahima binti Ya‘qub bo‘lib, gohida gadoyliq qilib Ayyub (a.s.) ga yegulik keltirar edi: *“Haramidinkim, otini Rahima binti Ya‘qub (a.s.) debdurlar va binti Ibrohim binni Yusuf (a.s.) ham debdurlar. Va Rahima yo muzdurluq, yo gadoyliq qilib, Ayyub (a.s.)g‘a qut kelturur erdi”*. Har qanday balo, sinov bo‘lishiga qaramay Ayyub (a.s.) barchasiga sabr qilib, xotiriga hech nimani keltirmay yolg‘iz Tangri taolo ibodati bilan mashg‘ul bo‘ladi. Sharif badanidan bir qurt agar yerga tushsa, uni olib yana o‘rniga qo‘yar edi va buni Haqning rizosi deb hisoblar edi: *“Va Ayyub. (a.s.) ul baliyyatqa sabr qilib, Tengri taolo toatidin xotirig‘a o‘zga nima kechmay, derlarki, sharif badanidin bir qurt agar tushsa erdi, yana olib o‘rnig‘a qo‘yar erdikim, sizga haq bu nasib qilg‘on ro‘zidin mahrum bo‘lmang”*.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Barcha sinovlarga Ayyub sabr va shukr qilishdan to‘xtamaydi. Maloikalar olamida uning sabrda tengsizligi e’tirof etildi. Tangri taolo unga sihat-salomatlikni qaytadan beradi: *“Va ul hamul sabr va shukr qilur erdi. Malakut olamig‘a sho‘r tushti va g‘avg‘o. Va maloika aning fazl va saburluqin e’tirof qilib, o‘z so‘zlaridin nodim bo‘ldilar. Tengri taolo inoyat qilib anga sihat yiborib, Jabrail (a.s.) keldi va ilikin tutub qo‘pordi. Va tamom qurtlar tanidin tushti. Va iki jonibidin iki bulog‘ paydo bo‘ldi va Jabrail (a.s.)ning muborak jismini ul suvlarg‘a g‘usl berib, borcha jarohatlari butti”*.

Barcha qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o‘tadi. Vaqti kelib sabr mukofoti sifatida unga mustahkam sog‘lik, behisob boylik ato etiladi. Tangri taolo Jabroil (a.s.)ni yuborib, tepasiga ikkita bulut kelib biri oltin, biri kumush yomg‘irni yog‘diradi. Ayyub (a.s.) shu suvda g‘usl qilib, barcha jarohatlaridan xalos bo‘ladi.

Navoiy asarning Zulkifl (a.s.)ga bag‘ishlangan qismida ham Ayyub (a.s.) haqida eslab o‘tadi: *“Zul-kifl (a.s.) bobida ixtilof ko‘bdur. Ba‘zi ani Dizqil debdurlar. Ba‘zi debdurlarki, Ayyub (a.s.)ning o‘g‘lidur, oti Bashar”*. Ya’ni, ba’zilarning fikricha, Zulkifl (a.s.) Ayyub (a.s.)ning o‘g‘li ekanligi, ismi Bashar ekani bayon qilinadi.

“Mahbub ul-qulub” asarida “Muhammadi arabiy” “Ayyubi nabiy” bilan yonmayon qo‘llanib, iymonga da’vat yo‘lida yetgan ozor-aziyatlarga e’tibor qaratilgan: *“Yo‘li bodiyasida zulumoti ofat, Xizrdek ani qat‘ qilg‘ong‘a bahra zuloli hayot. Shiddati yukiga homillardin biri Ayyubi nabiy va suubati hamlig‘a komillardin biri Muhammadi arabiy”*. Ya’ni Kimki Ayyub singari sabrga sohib bo‘lsa, mashaqqatlarda Xizr kabi matonat bilan tura olsa, u abadiy saodatga erishadi, degan ibratomuz fikr parcha mazmunida o‘z ifodasini topgan.

Xullas, Navoiy asarlari orqali Ayyub (a.s.) obrazi o‘zbek mumtoz adabiyotining an’anaviy obrazlari qatoridan muqim o‘riin egalladi. Ulug‘ shoir ijodida Ayyub (a.s.) obrazi tarixiy hamda badiiy timsol sifatida talqin qilindi. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida Ayyub (a.s.) obrazi hikoyat qahramoni bo‘lsa, “Tarixi anbiyo va hukamo”da tarixiylik tamoyillari saqlanib qolgan. “Mahbub ul-qulub”da esa sabr ramzi o‘laroq, fikr mazmunini yuzaga chiqarish uchun qo‘llangan. Navoiy epik asarlaridagi Ayyub timsolini o‘rganish nafaqat ulug‘ mutafakkir dunyoqarashining o‘ziga xosligi, balki badiiy mahorat sirlarini ham yanada teranroq tushunishga yo‘l ochadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima // Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T., 2001.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброп. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

3. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.
4. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. 2-том. – Т., 1983.
6. Моисеева А.В. Образы Кораническо-Библейских пророков в персидской средневековой религиозно-мистической литературе (II–XVII) дисс. ... – Санкт-Петербург, 2021.